

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi, veterinariya va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Orolbo‘yi hududida tabiiy ozuqa bazasi manbalari va saksovullar orasida ko‘paytirilayotgan mahalliy yantoq turlari asosida asalarichilikni rivojlantirish uchun urchitish, saqlash va boqishning innovatsion texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Ishlab chiqiladigan texnologik xaritalar hududlar bo‘yicha tabiiy yaylovlar, ko‘paytirilayotgan mahalliy yantoq turlari va yaratilayotgan “Yashil makon” zonalaridan ozuqa bazasi sifatida samarali foydalanish uchun asalari oilalarini ko‘chirish va boqish muddatlarini aniqlashda asalarichilik uchun transport xarajatlarini tejash va logistika infratuzilmasini yaratishga xizmat qiladi. <i>Buckfast</i> va mahalliy asalari zotlarini chatishtirish va olingan avlodning mahalliy iqlimga moslashuvchanligini o‘rganish orqali asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi yaratiladi va sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mahalliy iqlim sharoitida qish va yozgi davrdagi ob- havo xususiyatlaridan kelib chiqib uya qutilarni ishlab chiqarish uchun materiallar sarf-xarajatlarini o‘rganish loyihaning bir texnologik jarayon hisoblanadi. Asalarichilikda ozuqa tanqis bo‘lgan davrlarda qo‘shimcha oziqlantirishda shakar sharbati va qandi tayyorlanadi. Asalari kasalliklarini oldini olish va davolashda probiotik bilan boyitilgan qo‘shimcha ozuqalar (shakar sharbati, qandi) retsepti, me‘yori va texnologiyasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.